FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FATTOXOV XOLMUXAMMAD XAYRULLOYEVICH

DINIY ANTROPONIMLARNING ETIMOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI
(“Tarixi Muhammadiy” va “Qissasi Rabg‘uziy” asarlari asosida)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 811.512.133'373.23:28

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Fattoxov Xolmuxammad Xayrulloyevich
Diniy antroponimlarning etimologik, leksik-semantik tadqiqi (“Tarixi Muhammadiy” va “Qissasi Rabg‘uziy” asarlari asosida)…… ……....3

Fattoxov Xolmuxammad Xayrulloyevich
An Etymological and Lexical-Semantic Study of Religious Anthroponyms (Based on the Works Tarikhi Muhammadi and Qissasi Rabghuzi)…….……25

Фаттохов Холмухаммад Хайруллоевич
Этимологическое и лексико-семантическое исследование религиозных антропонимов (на материале произведений “Тарихи Мухаммади” и “Киссаси Рабгузи”)…….....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ …….…….....55

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FATTOXOV XOLMUXAMMAD XAYRULLOYEVICH

DINIY ANTROPONIMLARNING ETIMOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI
(“Tarixi Muhammadiy” va “Qissasi Rabg‘uziy” asarlari asosida)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Fil6685 raqami **bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Dusmatov Xikmatullo Haytboyevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Nurmonova Dilfuza Abdulhamidovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Yusupova Shahzoda Toxirjon qizi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, B.Marg‘inoniy ko‘chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____”_____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “____”_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Y.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

A.I.Saminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.f.d. (PhD), dotsent

M.T.Abdupattoyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fil.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida inson nomlari, ularning ma’naviy, madaniy va tarixiy qatlamlariga uzoq yillardan buyon onomastika va antroponimiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Ayniqsa, diniy antroponimlarning paydo bo‘lishi, tarixi va semantik tagma’nolarini o‘rganish masalalari zamonaviy lingvistikada faqat grammatik va semantik emas, balki falsafiy, mental va sivilizatsion yondashuvlar orqali tahlil qilinayotgan murakkab lingvokulturologik muammolar qatoriga kiradi. Bunda ilohiylik bilan bog‘liq nomlarning inson shaxsiyatiga ta’siri, ularning muqaddas matnlar bilan uzviy aloqasi tilshunoslar, faylasuflar va madaniy antropologlar diqqat markazida turibdi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar diniy antroponimlarning leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritish, tarixiy va zamonaviy nomlash an’analarini qiyosiy tahlil qilish, antroponimik lug‘atlar hamda ma’lumotlar bazalarini takomillashtirish, shuningdek, onomastika, leksikologiya, etimologiya, lingvokulturologiya va dinshunoslik yo‘nalishlarida olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni ishonchli manbalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida maxsus kurslar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda, diniy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini ilmiy asosda tashkil etishda hamda farzandlarga ism qo‘yish madaniyatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida islom madaniyati bilan bog‘liq antroponimlar o‘ziga xos semiotik, ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan alohida nomlar tizimini tashkil etadi. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan va o‘zgartirilgan ismlar nafaqat diniy belgilarga, balki ma’naviy tarbiya va ijtimoiy qadriyatlar tizimiga bog‘langan leksik-etimologik tuzilishga ega. Bu jarayonni ilmiy tadqiq etish, islomiy nom berish an’analarining tilimiz va milliy ongimizga ta’sirini ochib berish, umuminsoniy hamda muqaddas nomlarning semantik qatlamini o‘rganish dunyo antroponimikasining dolzarb nazariy masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot diniy antroponimlarning leksik-semantik va etimologik tabiatini kompleks yondashuv asosida yoritish, ularning nomlash tamoyillari, semantik tasnifi va lingvokulturologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tizimlashtirish, diniy antroponimlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda o‘zbek onomastikasi, antroponimiya, leksikologiya va etimologiya sohalarining nazariy bazasini yangi ilmiy xulosalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tili va milliy merosni qayta baholash, tildagi ma’naviy qadriyatlarni tiklash masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik milliy o‘zlikni tiklashga, islomiy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qildi. Ushbu maqsad va vazifalarni qamrab olgan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”[1] asosida bugungi kunda ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонига 1-илова.

jarayonda diniy nomlarning qayta ommalashuvi, muqaddas shaxslar nomlari bilan bog‘liq ismlarning xalq ongida yanada mustahkam joy egallashi kuzatilmoqda. Shunday ekan, ushbu nomlarning ilmiy, leksik-semantik va etimologik tahlili, ularning lingvokulturologik va sotsiolingvistik asosda tadqiq qilinishi zamon talabiga to‘la javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5419-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagiPF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2025-yil 21-oktabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyada bildirilgan fikr-mulohazalar manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ismlar, jumladan, diniy antroponimlar insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat nomlanish vositasi, balki muayyan ijtimoiy, diniy, madaniy, milliy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan lingvokulturologik fenomen sifatida ham ahamiyatga ega. Xalq onomastikasi, shu jumladan, antroponimiya doirasidagi tadqiqotlar dunyo tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham alohida e’tiborga sazovor.

Jahon tilshunosligida antroponimiya sohasida, xususan, diniy ismlar haqida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, J.Grinberg[2], E.Sapir[3],A.V.Superanskaya[4] V.A.Nikonov[5], Y.A.Karpenko[6], Ahmed Salahuddin[7], Mernissi Fatima[8], Bovering Gerhard[9], Nasr Seyyed Hossein[10] larni aytishimiz mumkin.

Turkologiyada ham ushbu muammo doirasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, T.Jonuzoqov, T.Kusimova, A.Shayxulov, Z.Sadixov,

---

[2] Гринберг Ж. Структурная лингвистика / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1970.

[3] Сапир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993.

[4] Суперанская А.В. Общее имя и имя собственное. – М.: Наука, 1986.

[5] Никонов В.А. Имена и общества: История, функции, типология. – М.: Наука, 1974.

[6] Schimmel A. Islamic Names. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1990.

[7] Ahmed S. A Dictionary of Muslim Names. – London: Hurst & Company, 1999.

[8] Mernissi F. The Veil and the Male Elite: A Feminist Interpretation of Women’s Rights in Islam. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1991. – 222 p.

[9] Böwering G. God and His Attributes in the Qur’an. – In: Encyclopaedia of the Qur’an, Vol. II, ed. by Jane Dammen McAuliffe. – Leiden: Brill, 2002. – P. 317–331.

[10] Nasr Seyyed H. Ideals and Realities of Islam. – London: Unwin Paperbacks, 1988. – 220 p.

A.Pashayev, M.Chobanov[11]larning monografik tarzdagi ishlari, A.Minnegaliyev[12], Z.Yaxyayeva[13], T.Iskovich[14], Z.Xafizova[15], Y.Xodjalepesovalarning[16] ilmiy izlanishlarini sanab o‘tish o‘rinli.

O‘zbek tilshunosligida antroponimlar va ularning tasnifi, lug‘aviy va tarixiy xususiyatlari, shuningdek, din va tilshunoslik masalalari yuzasidan atroflicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar E.Begmatov, N.Uluqov[17], M.Galiyeva, M.Mamajonov, Sh.Yusupova, X.Qodirova, N.Sharafutdinova, O.Xamdamova[18] kabi tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. Bu sohada o‘zbek ism, familiya va ota ismlarining qo‘yilish motivlari, ma’noviy, lug‘aviy va grammatik xususiyatlari hamda laqab va taxalluslarning maxsus tadqiq qilinganligi[19] ham e’tiborga molik.

Shu bilan birga, diniy antroponimlarning maxsus holda, aynan Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan va o‘zgartirilgan ism, laqab va kunyalarning leksik-semantik hamda etimologik tahlili tilshunoslikning alohida obyekti sifatida kompleks tahlil qilinmagan. Ushbu mavzuga aloqador ma’lum fikr va qaydlar ayrim islomshunoslik, tarix va hadis ilmi manbalarida uchragan bo‘lsa-da, ular tilshunoslik nuqtayi nazaridan tizimli o‘rganilmagan. Mazkur dissertatsiya shunday ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Onomastika muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

---

[11] Жанузаков Т. Лично-собственные имена в казахском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1960. – 19 с.; Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Уфа, 1975. – С. 17–25; Шайхулов А.Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения. Уфа, 1983.; Садыхов З. Личные имена в азербайджанском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1975; Пашаев А. М. Прозвища в азербайджанском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Баку, 1987. – 18 с.; Чобанов М.Н. Азербайчан антропонимикасынин эсэслари. – Тбилиси: Генарлеба, 1983.

[12] Миннегалиева А.М. Язык татарской религиозно-дидактической литературы: на материале трактата по исламской юриспруденции “Мухтасар ал-Кудури”: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 31 с.

[13]URL:http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9r (Murojaat sanasi: 11.02.2024)

[14]URL:https://urgi.urfu.ru/ru/science/rossija-istoriko-kulturnoe-nasledie/russkii-jazyk-i-literatura/tatjana-viktorovna-ickovich/ (Murojaat sanasi: 15.06.2024.)

[15]URL:https://cyberleninka.ru/article/n/tematicheskaya-klassifikatsiya-religioznyh-leksem-v-bashkirskom-yazyke (Murojaat sanasi: 15.06.2024)

[16] Ходжалепесова Ю.Н. Прозвище в системе каракалпакской антропонимии: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Нукус, 1995.

[17] Бу муаллифларнинг ишлари Э.Бегматов ва Н.Улуқовларнинг “Ўзбек ономастикаси” (библиографик кўрсаткич)да батафсил келтирилган. Қаранг: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008. – Б. 96–124.

[18] Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши: Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 29 б.; Мамажонов М. Антропонимлар дискурс релеванти сифатида. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Фарғона, 2020. – 160 б.; Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Фарғона, 2021. – 154 б.; Qodirova X. Xorazm shevalaridagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. … avtoref. – Urganch, 2023. – 22 b.; Sharafutdinova N. O‘zbek tilida teonimlar va ularning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. … avtoref. – Farg‘ona, 2024. – 26 b.; Xamdamova O. Hadis matnlarining lingvostilistik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) …diss. – Farg‘ona, 2025. – 136 b.

[19] Qodirova X. Xorazm shevalaridagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. … avtoref. – Urganch, 2023. – 22 b.

Tadqiqotning maqsadi diniy antroponimlarning leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini tizimli o‘rganish, ularning tarixi, ma’no qatlamlari, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan yoki o‘zgartirilgan ism, laqab va kunyalar orqali islomiy nom berish an’analarining lingvomadaniy asoslarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diniy antroponimlar, xususan, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan sahobalarga berilgan va o‘zgartirilgan ism, laqab hamda kunyalarning nomlash tamoyillari va ularning semantik asoslarini aniqlash;

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan qo‘llangan laqab va kunyalarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, ularning metaforik va metonimik nomlash usullari asosida shakllanish xususiyatlarini aniqlash;

sahobalarga berilgan ism, laqab va kunyalarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish hamda ularni axloqiy fazilat, ijtimoiy maqom, jismoniy yoki ruhiy xususiyat, shuningdek, oilaviy munosabatni ifodalovchi semantik guruhlarga ajratish;

diniy antroponimlarning etimologik manbalari va ularning shakllanish jarayonini islomiy manbalar asosida o‘rganish;

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan ism, laqab va kunyalarning lingvokulturologik hamda ijtimoiy-madaniy funksiyalarini aniqlash;

diniy antroponimlarning jamiyatda ijobiy axloqiy fazilatlarni targ‘ib qilish va shaxsning ijtimoiy obro‘sini shakllantirishdagi lingvomadaniy mexanizm sifatidagi rolini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” hamda Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlarida uchraydigan diniy antroponimlar – ismlar, laqablar va kunyalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” hamda Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlarida uchraydigan diniy antroponimlar (ism, laqab va kunyalar)ning leksik-semantik xususiyatlari, ularning nomlanish tamoyillari, semantik guruhlari, etimologik manbalari hamda lingvomadaniy va uslubiy funksiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, leksik-semantik, etimologik, struktur, komponent, kontekstual, lingvokulturologik hamda sotsiolingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan sahobalarga berilgan va o‘zgartirilgan ismlarning tasodifiy nomlash hodisasi emasligi, balki salbiy, shirk yoki johiliyat mazmunini anglatuvchi antroponimlarni ijobiy semantikaga, axloqiy qadriyatlarga va tavhid g‘oyasiga muvofiq nomlar bilan almashtirish tamoyiliga asoslangani aniqlangan; mazkur jarayonning leksik-semantik jihatdan nom ma’nosini salbiy mazmundan ijobiy ma’noga yo‘naltirishi, ijtimoiy-pragmatik jihatdan shaxsning jamiyatdagi mavqei va ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatishi, tarbiyaviy jihatdan esa ezgulik, odob-axloq va komil inson fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslangan;

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan qo‘llangan laqab va kunyalar shaxsni bevosita ism bilan atashdan tashqari, uning muayyan belgi-xususiyatlari

asosida nomlashga xizmat qiluvchi ikkilamchi antroponimik birliklar ekani, ularning metaforik va metonimik nominatsiya asosida shakllanishi hamda shaxsni tavsiflash, individuallashtirish, e’zozlash va ijtimoiy identifikatsiyalash funksiyalarini bajarishi dalillangan;

sahobalarga berilgan ism, laqab va kunyalar leksik-semantik jihatdan tizimlashtirilib, diniy antroponimlarning shaxs fazilati, holati, ijtimoiy mavqei, qarindoshlik munosabati va boshqa tushunchalarni ifodalovchi semantik guruhlari aniqlangan hamda ular asosida islomiy antroponimiyada nomlashning barqaror semantik modellari mavjudligi asoslangan.

islomiy manbalar va tarixiy yodgorliklarda uchraydigan diniy antroponimlarning etimologik tahlili ularning aksar qismi arab tili leksikasi asosida shakllangani, ayrim nomlar esa qadimgi arab madaniyati, qabilaviy an’analar va islomiy ma’naviy qadriyatlar ta’sirida semantik jihatdan qayta talqin qilingani, shuningdek, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan ism, laqab va kunyalar shaxsning axloqiy kamolotini shakllantirish, ijobiy fazilatlarni targ‘ib etish hamda ijtimoiy maqomini belgilash kabi ijtimoiy-lingvomadaniy mexanizm sifatida amal qilgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

ushbu tadqiqot natijasida Muhammad (s.a.v.) tomonidan berilgan yoki o‘zgartirilgan ism, laqab va kunyalar asosida maxsus diniy antroponimlar korpusi shakllantirildi. Bu korpus, o‘z navbatida, onomastika, leksikologiya, etimologiya va dinshunoslik sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi;

tadqiqot asosida diniy antroponimlarning leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini tahlil qilish metodikasi ishlab chiqildi hamda o‘zbek tiliga singib ketgan diniy ismlar lug‘aviy jihatdan ilmiy asosda tavsiflandi;

ushbu ish maktab va oliy ta’lim muassasalarida tilshunoslik, dinshunoslik va tarix yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus kurslar, seminarlar, ta’limiy modullar uchun metodik asos sifatida tavsiya etiladi;

shuningdek, tadqiqot natijalari fuqarolarga farzandlariga ma’noli va islomiy an’analarga muvofiq ism qo‘yishda uslubiy tavsiyalar sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, diniy-ma’naviy merosning til vositasida saqlanishi va avlodlarga to‘g‘ri yetkazilishiga amaliy hissa qo‘shadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot muammosining aniq belgilanganligi, mavzuga doir mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, islomiy manbalar hamda tarixiy yodgorliklarning qiyosiy-tanqidiy tahlil qilinganligi, tadqiqot materiallarining ilmiy mezonlar asosida saralanganligi, leksik-semantik, etimologik, struktur, qiyosiy, kontekstual, lingvokulturologik va sotsiolingvistik tahlil usullaridan foydalanilganligi, nazariy xulosalarning Qur’oni karim, hadislar, siyrat va tabaqot adabiyoti, Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” hamda Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlaridagi til materiallari asosida dalillanganligi, olingan natijalarning respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilganligi, ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati diniy antroponimlarning leksik-semantik, etimologik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik xususiyatlari,

nomlash tamoyillari, semantik guruhlari hamda etimologik manbalarining tizimli ravishda ilmiy asoslangani, Muhammad (s.a.v.) tomonidan sahobalarga berilgan va o‘zgartirilgan ism, laqab hamda kunyalar misolida diniy antroponimlarning shakllanishi, semantik taraqqiyoti va funksional xususiyatlari ochib berilgani hamda olingan natijalarning o‘zbek onomastikasi va diniy antroponimlarni kompleks tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan onomastika, antroponimiya, leksikologiya, etimologiya va islomshunoslik yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlarda, oliy va professional ta’lim muassasalarida tegishli fanlar, maxsus kurslar hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlashda, diniy antroponimlarni to‘g‘ri talqin etish, ism qo‘yish madaniyatini takomillashtirish, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etish va yosh avlodni milliy hamda diniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Diniy antroponimlarning leksik-semantik hamda etimologik tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

sahobalarga berilgan ism, laqab va kunyalarning leksik-semantik tahlili mazkur antroponimlar, asosan, axloqiy fazilat, ijtimoiy maqom, jismoniy yoki ruhiy xususiyat, shuningdek, oilaviy munosabatni ifodalovchi ma’no maydonlari asosida guruhlanishi, bu esa diniy antroponimiyada nomlashning muayyan semantik modellari mavjudligini ko‘rsatishi yuzasidan asoslangan ilmiy taklif va tavsiyalardan ALM-202304076-05-son “Milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2026-yil 13-maydagi 04/5302-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot o‘zbek tilida yaratilgan milliy neyropsixolingvistik metodlarni yaratish, ularning ishonchliligini ta’minlash va o‘qish ko‘nikmalari buzilgan bolalar uchun maxsus lingvistik testlarni yaratish va takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan, bu esa til va uning korpusini tizimli tahlil qilishga oid nazariy qoidalar bilan amaliy tilshunoslikning rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan;

islomiy manbalar va tarixiy yodgorliklarda uchraydigan diniy antroponimlarning etimologik tahlili ularning aksar qismi arab tili leksikasi asosida shakllangani, ayrim nomlar esa qadimgi arab madaniyati, qabilaviy an’analar va islomiy ma’naviy qadriyatlar ta’sirida semantik jihatdan qayta talqin qilingani, shuningdek, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan ism, laqab va kunyalar shaxsning axloqiy kamolotini shakllantirish, ijobiy fazilatlarni targ‘ib etish hamda ijtimoiy maqomini belgilash kabi ijtimoiy-lingvomadaniy mexanizm sifatida amal qilgani yuzasidan asoslangan ilmiy taklif va tavsiyalardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tashkil etilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar doirasida foydalanilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2026-yil 31-martdagi 01-03-98-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘tkazilgan tadbirlarning ma’rifiy-tarbiyaviy samaradorligi oshgan;

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan sahobalarga berilgan va o‘zgartirilgan ismlarning tasodifiy nomlash hodisasi emasligi, balki salbiy, shirk yoki johiliyat mazmunini anglatuvchi antroponimlarni ijobiy semantikaga, axloqiy qadriyatlarga va tavhid g‘oyasiga muvofiq nomlar bilan almashtirish tamoyiliga

asoslangani, mazkur jarayonning leksik-semantik, ijtimoiy-pragmatik va tarbiyaviy xususiyatlariga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazining 2024–2025-yillardagi targ'ibot-tashviqot ishlari, yig'ilishlari, seminarlar hamda respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlarini tashkil etishda foydalanilgan (Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazining 2026-yil 16-martdagi T-r-75-son ma'lumotnomasi). Natijada diniy antroponimlarning mazmun-mohiyatini ilmiy asosda yoritish, ism qo'yish bilan bog'liq milliy va diniy qadriyatlarni targ'ib etish hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning mazmunini boyitish imkoniyati yaratilgan.

Muhammad payg'ambar (s.a.v.) tomonidan qo'llangan laqab va kunyalar shaxsning ijtimoiy maqomi, kasbi, axloqiy fazilati hamda oilaviy munosabatlarini ifodalovchi antroponimik birliklar ekani, ularning metaforik va metonimik nomlash usullari asosida shakllanishi hamda shaxsni tavsiflash va individuallashtirish kabi lingvomadaniy funksiyani bajarishi yuzasidan asoslangan ilmiy taklif va tavsiyalardan Tojik milliy-madaniy markazi tomonidan tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar doirasida foydalanilgan (Respublika tojik milliy-madaniy markazi Farg'ona viloyat bo'linmasining 2026-yil 16-martdagi 36-son ma'lumotnomasi). Natijada o'tkazilgan tadbirlarning samaradorligi oshgan;

Muhammad payg'ambar (s.a.v.) tomonidan sahobalarga berilgan va o'zgartirilgan ismlarning salbiy, johiliyat mazmunini anglatuvchi antroponimlarni ijobiy semantikaga, axloqiy qadriyatlarga va tavhid g'oyasiga muvofiq nomlar bilan almashtirish tamoyiliga asoslangani, mazkur jarayonning leksik-semantik, ijtimoiy-pragmatik va tarbiyaviy xususiyatlariga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan Hadis ilmi maktabi tomonidan tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar doirasida amaliy foydalanilgan (Hadis ilmi maktabining 2026-yil 24-martdagi 01-08-son ma'lumotnomasi). Natijada tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning ilmiy mazmuni va samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta respublika hamda 2 ta xalqaro konferensiyada ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchliligi, natijalarning

ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Ishning birinchi bobi **“Diniy antroponimiya: nazariy, tarixiy va metodologik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, uning dastlabki fasli “*Diniy antroponimiya: tushuncha, turlari va vazifalari”* deb nomlangan.

Antroponimlar xalqning madaniyati, tarixi va ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtirgan leksik birliklar hisoblangani uchun ularning yuzaga kelish va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Turkiy tillarda, shuningdek, o‘zbek nomshunosligida tarixiy antroponimiya eng kam o‘rganilgan sohalardan biridir. Ayniqsa, diniy onomastik birliklar tadqiqi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmoqda. Shu bois biz ushbu tadqiqotimizda diniy antroponimlarning asosiy kategoriyasi – ismlarning yuzaga kelishi va taraqqiyoti, etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlarini ilk bor tahlilga tortdik. Tadqiqot islom onomastikasi va antroponimiyasida munozarali bo‘lib turgan ko‘pgina muammolarning yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy antroponimiya insonlarga nisbatan ishlatiladigan, diniy manbalarga, muqaddas shaxslarga, ilohiy atributlarga doir bo‘lgan nomlarni o‘rganuvchi onomastika tarmog‘i hisoblanadi. U antroponimikaning maxsus yo‘nalishi bo‘lib, inson nomlarining din bilan bog‘liq shakllanish, taraqqiy etish va ijtimoiy vazifalarini tahlil etadi[20].

Diniy antroponimlar faqat bir til yoki millat doirasida emas, balki ko‘plab madaniyatlar va dinlar kesishmasida faol qo‘llanadi. Masalan, Odam (Adam), Ibrohim (Abraham), Muso (Moses), Iso (Jesus), Muhammad (Mahomet) nomlari islom, nasroniylik va yahudiylikda bir vaqtda muqaddas shaxslar sifatida qayd etilgan va antroponim sifatida keng tarqalgan[21].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diniy antroponimlarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin[22]:

1. Payg‘ambarlar nomlari: Qur’on va boshqa muqaddas kitoblarda zikr etilgan Odam, Ibrohim, Nuh, Iso, Muhammad va boshqa payg‘ambarlar nomlari.
2. Sahobalar va avliyolar nomlari: Umar, Ali, Xolid, Hasan, Husayn, Abdulqodir, Bahouddin kabi tarixiy shaxslarning ismlari.
3. Antroponimga aylangan farishtalar nomlari: Jabroil, Mikoil kabi.
4. Allohning 99 ismi tubidan kelgan nomlar: Abdulloh, Abdurahmon, Abdulhakim kabi.
5. Badiiy va ramziy diniy nomlar: Qorun, Shaytoni la’in, Lut qavmi kabi adabiy-diniy syujetlarda uchraydigan nomlar.

Bu tasnif diniy ismlarning vazifasini tadqiq etishda va ularning paydo bo‘lish sabablarini tahlil qilishda metodologik asos sifatida xizmat qiladi[23].

O‘zbek tilida quyidagi antroponimik birliklar uchraydi:

---

[20] Карпенко Ю.А. Введение в ономастику. – Киев: Высшая школа, 1985. – С. 48.

[21] Успенский Л.В. Имя дома твоего: О русских именах, прозвищах, фамилиях. – М.: Молодая гвардия, 1988. – С. 33–37.

[22] Степанов А.Б. Антропонимика и религиозная традиция. – М.: Наука, 1999. – С. 112.

[23] Мартине А. Ономастика как часть лингвистической структуры. – Париж, 1975.

1. Ismlar – konkret shaxsga berilgan ismlar.

2. Laqablar.

3. Taxalluslar.

4. O‘zbek tilida shaxsni o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba’zi shakllar (“qizi”, “o‘g‘li”) yordamida nomlash.

5. Shaxsni uning ismi yonida o‘tmish ajdodlari nomini arabcha shakllar (“ibn”, “binni”) vositasida nomlash.

6. O‘tgan asrning 20–30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari[24].

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ismga alohida e’tibor qaratganlar va bu borada ko‘plab hikmatli hadislarda fikr bildirganlar. Ul zot bir hadislarida shunday deganlar: *“Sizlar Qiyomat kunida o‘z ismlaringiz va ota-bobolaringizning ismlari bilan chaqirilasizlar, ismlaringizni chiroyli qilib qo‘yinglar”* (Abu Dovud rivoyati)[25]. Bu hadis ismning nafaqat dunyoviy, balki oxiratdagi maqomini ham ta’kidlaydi. Shuningdek, bu holat ismlarning nafs, ruhiyat va ijtimoiy ongda chuqur iz qoldiruvchi semantik vazifaga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Lug‘atlarda laqab – maqtov yoki malomat ma’nolarini bildiruvchi va ismdan keyin keluvchi so‘z yoki sifatni bildiruvchi atamani ifodalaydi. Uning ko‘pligi alqob bo‘ladi. Barcha madaniyatlarda ism bilan birga laqab qo‘yish an’anasi mavjud. Ko‘p hollarda shaxslar o‘z ismidan ko‘ra laqabi bilan taniladi. Islom dini paydo bo‘lishidan oldin ham arablar orasida laqab berish urf bo‘lgan. Agar laqab haqorat omilisiz bo‘lsa va insonni ajratish yoki tanish uchun berilgan bo‘lsa, bu ijobiy hol sifatida qabul qilingan. Bir ism bir nechta shaxslarda uchrasa, ularni farqlash uchun ham laqablar ishlatilgan. Agar shaxs o‘ziga berilgan laqabni qabul qilmasa yoki laqab haqoratli va tahqirlovchi bo‘lsa, bu holat man etilgan. Qur’onda ham bunday holat tanqid qilingan:

“Ey mo‘minlar! Bir-biringizni masxara qilmanglar! Ehtimol, ular sizlardan yaxshiroq bo‘lishlari mumkin. Bir-biringizni ayblamanglar, bir-biringizni yomon laqablar bilan chaqirmanglar. Imondan keyin fosiqlik qanday yomon sifatdir! Tavba qilmaydiganlar zolimlardir” (Hujurot surasi, 11-oyat).

Hazrat Payg‘ambar: “Mo‘minning mo‘min qarindoshi ustidagi haqlaridan biri – uni sevimli ismi bilan chaqirishidir”, – deb marhamat qilganlar.

Islom tarixida sahobalarga berilgan go‘zal laqablar bunga misol bo‘ladi. Masalan, Hazrat Abu Bakrga **Siddiq**, Hazrat Umarga **Foruq**, Hazrat Usmonga **Zunnurayn**, Hazrat Aliga **Abu Turob** kabi laqablar berilgan. Bundan tashqari, yangi musulmon bo‘lgan shaxslarga Hazrati Payg‘ambar ularning ismini so‘rab, agar u ma’naviy jihatdan nomaqbul bo‘lsa, o‘zgartirganlar hamda ma’naviy va madaniy jihatdan go‘zal ismlar qo‘yganlar.

---

[24] Бегматов Э. Ўзбек тили антропономикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 11.

[25] Ibn Hanbal, Abu ‘Abdullah Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal ash-Shaybani**.** al-Musnad. V jild. – Istanbul: Çağrı Yayınları, 1982. – S. 194; ad-Darimiy, Abu Muhammad ‘Abdullah ibn ‘Abd ar-Rahman. as-Sunan. I nashr. Riyad: Dāru’l-Mughnī, 1421/2000, Kitāb al-Isti’ẓān, bāb 59, I jild, h. 2736. – S. 1766; Abu Dāwud, Sulaymān ibn al-Ashʿath as-Sijistānī. as-Sunan. Istanbul: Çağrı Yayınları, [nashr yili ko‘rsatilmagan], Kitāb al-Adab, bāb 69, V jild, h. 4948. – S. 236.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Diniy antroponimlarning tasnifi va ularning turli kontekstdagi ifodasi”* deb nomlangan. Diniy antroponimlar – xalqning diniy e’tiqodi, tarixiy xotirasi va madaniy ongini aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Ular Qur’on, hadis, tarixiy yodgorliklar, afsonaviy va tasavvufga oid adabiyotlarda ko‘p uchraydi. Ayrim manbalarda diniy ismlarning uch asosiy turi: ilohiy ismlar, badiiy-afsonaviy ismlar va real kishilar ismlari ko‘rsatiladi:

I. Ilohiy ismlar (Alloh nomlari va payg‘ambarlar ismlari):

1. Allohning go‘zal ismlari (Asmoul husna). Islomda Allohning 99 ta go‘zal ismi mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi insonlarga qo‘yiladigan ismlarning negizini tashkil etadi. Masalan:

- Abdurahmon – “Rahmon” (Mehribon) ismiga nisbat;
- Abdulloh – “Allohning quli”;
- Abdulkarim – “Karim” (Saxiy) ismiga nisbat.

Bu ismlar Qur’on oyatlarida qayd etilgan va islomiy e’tiqodda muqaddas sanaladi.

2. Payg‘ambar alayhissalomlar nomlari. Qur’oni karimda 25 ta payg‘ambar nomi qayd etilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi musulmon jamiyatida farzandlarga ism qo‘yishda foydalaniladi:

- Odam – insoniyat otasi, ismi suryoniycha *Adam* (qizil tuproq) so‘zidan kelib chiqqan;
- Ibrohim – xalq otasi, arabchalashtirilgan ibroniy nom;
- Yusuf – go‘zallik, sabr timsoli. Yusuf nomi Qur’ondagi 12-surada alohida hikoya shaklida berilgan;
- Muso – yahudiycha “suvdan olingan” ma’nosida, Qur’onda eng ko‘p zikr etilgan payg‘ambar;
- Muhammad – Alloh tomonidan maqtalgan, oxirgi payg‘ambar.

Bu ismlar XIII–XVI asrlardagi turkiy manbalarda, masalan, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida, Alisher Navoiy asarlarida, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” yodgorligida keng uchraydi.

II. Badiiy-afsonaviy ismlar**.** Bu guruhga tarixiylik darajasi kamroq bo‘lgan, ammo diniy rivoyatlar, afsonalar va adabiy manbalarda qayd etilgan muqaddas shaxslar nomlari kiradi:

- Luqmon – Qur’onda 31-sura nomi, donishmandlik timsoli;
- Zulqarnayn – ikki shoxli, Qur’onda ilm va qudrat timsoli bo‘lgan sarkarda. Ba’zi tadqiqotchilar uni Iskandar deb taxmin qiladilar;
- Uzayr – yahudiylarga xos shaxs, Qur’onda bir marta tilga olingan;
- Xizr – Qur’on tafsirlarida yashirin bilim egasi sifatida tavsiflanadi. Rabg‘uziy va sufiy asarlarda payg‘ambar maqomida ko‘rsatilgan.

Bunday ismlar sufiy adabiyotda va xalq og‘zaki ijodida ramziy-tarixiy xotira sifatida muhim o‘rin egallaydi.

III. Real diniy asosli ismlar. Ushbu turga tarixda yashab o‘tgan, diniy maqomga ega kishilarning ismlari kiradi:

1. Sahobalar va xalifalar nomlari:

Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali – to‘rt xalifa nomi;

Hasan, Husayn – Payg‘ambar nabiralari.

Bu ismlar IX–X asrlarda Somoniylar davridan boshlab musulmon olamida eng ko‘p ishlatiladigan nomlarga aylangan.

2. Diniy olimlar nomlari**.** Bu guruhga fiqh, tafsir, hadis, falsafa va tasavvuf ilmining yirik vakillari ismlarini kiritish mumkin:

Buxoriy (Imom al-Buxoriy) – “Al-Jome’ as-Sahih” asari muallifi;

Termiziy, Nasafiy, Moturidiy – Movarounnahr ulamolari;

G‘azzoliy, Jaloliddin Rumiy, Junayd Bag‘dodiy – sufiy-faylasuflar.

Ularning ismlari din asosida tanlangan bo‘lib, diniy va ma’naviy qadriyatlarning ramziga aylangan.

3. Diniy asosga ega zamonaviy ismlar. So‘nggi yillarda diniy asosdagi yangi antroponimlar paydo bo‘lmoqda:

Iymona, Sabr, Shukr, Hikmat – bular diniy-axloqiy tushunchalardan kelib chiqqan;

Imron – “Oli Imron” surasiga aloqador bo‘lib, “Oli Imron” birikmasi “Imron oilasi (xonadoni)” ma’nosini anglatadi. “Imron” ismi Qur’oni karim nozil bo‘lishidan ancha avval somiy xalqlar orasida qo‘llangan antroponimlardan biri hisoblanadi;

farzandga qo‘shma diniy antroponimlar qo‘yish odat tusiga kirmoqda: Muhammadqodir;

bir uzvi diniy, bir uzvi zamonaviy ismlar qo‘yish urfga aylanib, keng yoyilmoqda: Muhammadfayz, Muhammadanvar, Muhammadafzal;

bir komponenti kunya, ikkinchi komponenti zamonaviy otni tashkil etuvchi ismlar qo‘yish hollari uchramoqda: Abulfayz (kunyalar tarixda turli hollarda qo‘yilgan: ulardan biri – Abu kunyasi farzandli bo‘lganda, ya’ni farzandi ismining oldiga Abuni qo‘shib o‘sha farzandning otasiga nisbatan ishlatilgan va “...ning otasi” ma’nosini bildirgan. Bugungi kunda qo‘yilayotgan Abulfayz kabi ismlarda Abu kunya vazifasini bajarmay qoldi hamda “...ning otasi” degan lug‘aviy ma’noning tamoman yo‘qolishi yuz bermoqda);

ota-onasi qo‘ygan ismni o‘zgartirish hollari ham uchramoqda. Masalan, Gulsanamni boshqa ismga almashtirish.

Bunday ismlar tilshunoslik va sotsiomadaniy muhitda diniy tafakkurning yangilanishi, o‘ziga xos mental oriyentatsiyaning ifodasi sifatida baholanadi.

Bobning *“Qur’onda zikr etilgan payg‘ambarlar ismlarining etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlari”* deb nomlangan uchinchi faslida Qur’oni karimda nomi zikr etilgan payg‘ambarlar ismlarining etimologik va leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Bu tahlil orqali ismlarning kelib chiqishi, ularning Qur’ondagi vazifasi, ularning ma’naviy va madaniy vazifasi o‘rganildi. Ismlar tilshunoslik, dinshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim bo‘lib, arab tiliga boshqa tillardan o‘tgan, qadimgi somiy tillardagi ildizlarga ega bo‘lgan shakllar ham tahlilga tortildi.

Qur’onda 25 nafar payg‘ambar ismi bevosita tilga olingan. Ular: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Lut, Ismoil, Is’hoq, Ya’qub, Yusuf, Shuayb, Muso, Horun, Dovud, Sulaymon, Ilyos, Alyasa’, Yunus, Zulkifl, Ayyub, Zakariyyo, Yahyo, Iso va Muhammad (s.a.v.).

Qur’oni karimda zikr etilgan payg‘ambarlar ismlarini integral semantik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ismlar shaklan arabchalashtirilgan: masalan, *Yosef → Yusuf, Eliyahu → Ilyos*.

2. Ko‘pchilik ismlar semantik jihatdan da’vat, sabr, to‘g‘rilik, halollik kabi axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq. Masalan, Hud, Ibrohim, Solih kabi.

3. Tafsiriy manbalar (Ibn Kasir, Tabariy, Qurtubiy) har bir ismga alohida kontekst beradi, ammo tafsirlar tilshunoslikka emas, balki diniy ta’kidga asoslanadi.

4. Til va semantika orasida o‘zaro ta’sir mavjud: ba’zi ismlar Qur’on matnida o‘z kontekstiga muvofiq o‘zgartirilgan yoki yangicha ma’no ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, Ilyos, Alyasa’, Zulkifl v.b.

Bobning to‘rtinchi fasli *“Johiliya davrida va Qur’onda qo‘llangan ism, taxallus hamda kunyalarning o‘rni”* deb nomlanib, unda ismlar, taxalluslar va kunyalar insoniyat tarixida shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyaning muhim vositalari bo‘lib kelganligi lisoniy dalillar yordamida isbotlangan. Islomdan oldingi johiliya davri arab jamiyatida ham ism berish odati chuqur ildiz otgan bo‘lib, u ijtimoiy, diniy va psixologik ehtiyojlarni aks ettirgan. Bu davrda ismlar ko‘pincha shaxsning e’tiqodiga, orzu-umidlariga yoki ideallashgan fazilatlarga asoslangan holda tanlangan. Masalan, *Abdullot*, *Abdushams*, *Abdumanot*, *Abduljon* kabi ismlar mahalliy butlar va ilohiyot konsepsiyalariga bo‘lgan bog‘liqlikni ifodalagan. Shuningdek, *Hazn* (g‘am), *Harb* (urush), *Zalim* (zolim) kabi salbiy semantik yuklamalarga ega bo‘lgan ismlar jasorat, kuch, tajovuzkorlik va qat’iyat kabi qadriyatlar bilan bog‘liq holda qo‘yilgan.

Laqablar nafaqat individual tavsif, balki jamiyatning inson haqidagi ijtimoiy bahosining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Masalan, islomdan oldin ham Muhammad (s.a.v.) “**al-Amin**” – ya’ni “ishonchli” degan laqab bilan tanilgan.

Ko‘pincha bitta inson bir nechta laqabga ega bo‘lgan. Masalan, Abu Bakr as-Siddiq (r.a.) tarixiy manbalarda “**Atiq**” (ozod qilingan), “**Avvoh**” (ko‘p yig‘laydigan, nozik qalbli), “**Zulhilol**” (hilol sohibi), “**as-Siddiq**” (rostgo‘y) kabi bir nechta laqab bilan zikr etiladi[26]. Masalan,

– Ey Abu Bakr, do‘sting Muhammad so‘zini ongladingmu, yana bir yangi yolg‘on chiqardi. Ikki oylik yo‘l – Quddus shahriga kechaning bir qismida borib keldim, deydur. Endi sen bunga ham ishona olurmisan? – dedilar. Anda Abu Bakr: – Agar shu so‘zni aning aytgani rost bo‘lsa, u to‘g‘ri aytgan, albatta, unga ishonurman. Chunki yetti qat osmon ustidan, kecha-kunduz soatlar ichida unga kelgan vahiy xabarlariga ishonib, uni tasdiq qilurman. Endi buni nechuk tasdiq qilmagayman, – dedilar. Mana shu kundan boshlab Payg‘ambarimiz Abu Bakrga “Siddiq” laqabini qo‘ydilar. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 11-bet).

Bunday laqablar kishining shaxsiyati, diniy maqomi, faoliyati va jamiyatdagi tutgan o‘rnini aks ettirgan.

“O‘zbek adabiy yodgorliklarida qo‘llangan diniy antroponimlarning tarixiy-etimologik xususiyatlari” deb nomlangan beshinchi faslda o‘zbek adabiy

[26] Nebi Bozkurt, “Lakap”, DİA (Islom Ensiklopediyasi). XXVII jild. – S. 65.

yodgorliklarida diniy antroponimlar, ya'ni payg'ambarlar, sahobalar, tasavvuf ahli, qur'oniy shaxslar nomlarining juda keng qo'llanganligi, hatto payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan bir qator qadimgi turkiy (Nosiruddin Rabg'uziy "Qissasi Rabg'uziy") yoki mumtoz adabiyot (Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo") durdonalari ham mavjudligi haqida fikr yuritilgan.

Diniy antroponimlarning etimologik, leksik-semantik xususiyatlari tahlilida quyidagi manbalarga tayanish mumkin:

"Qissasi Rabg'uziy" – diniy-hikoyaviy mazmundagi asar bo'lib, unda Odam Ato, Idris, Nuh alayhissalomlar kabi payg'ambarlar haqida tafsilotlar berilgan.

A.Navoiy – "Tarixi anbiyo va hukamo" – tarixiy va biografik mazmundagi asar bo'lib, ismlar etimologiyasiga e'tibor qaratilgan.

"Shajarayi turk" (Abulg'oziy Bahodirxon) – etnonimlar va payg'ambarlar nasablariga oid genealogik ma'lumotlar mavjud.

Payg'ambarlar nomlari Qur'on hamda islom dini vositasida keng tarqalgan. Bu o'rinda shuni eslatib o'tish joizki, payg'ambarlar ismlarining ko'pchiligi Qur'oni karimdan avvalgi "Zabur", "Tavrot" va "Injil" kabi muqaddas kitoblarda zikr qilingan.

Bir tildan ikkinchi tilga o'tish jarayonida bu ismlar fonetik o'zgarishlarga uchragan (Adam – Odam, Abram//Ibrom – Ibrohim) va Markaziy Osiyo xalqlari uchun musulmoncha – islomiy ism hisoblangan. Shu tariqa payg'ambarlar nomlari kishi ismi sifatida qo'llanila boshlagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan berilgan va o'zgartirilgan ismlarning etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlari"** deb nomlangan bo'lib, ikki fasldan iborat. Uning "*Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan erkak sahobalarga qo'yilgan hamda o'zgartirilgan ismlarning etimologik, leksik-semantik tahlili"* deb nomlangan birinchi faslida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan erkak sahobalarga berilgan ismlar semantik tarkibining boyligi, diniy va axloqiy yuksakligi, shuningdek, bu nomlar arab tilining leksik imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali islomiy qadriyatlarning hayotga tatbiq etilishida muhim lingvokulturologik ahamiyatga ham ega ekanligi, shu sababli ushbu antroponimlarni o'rganish faqat nomshunoslik doirasida emas, balki tilshunoslik, dinshunoslik va sotsiomadaniy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan ham katta ilmiy ahamiyat kasb etishi haqida fikr bildirilgan.

Muhammad (s.a.v.) tomonidan erkaklarga berilgan ismlar, odatda, yaxshi ma'no anglatuvchi, ilohiy xususiyatlarga ega, axloqiy yuksaklikni aks ettiruvchi va jamiyatda maqbul bo'lgan leksemalardan tanlangan. Jumladan, Rasulullo (s.a.v.) tomonidan "Harb" ("jang") deb nomlangan sahobaning ismi "Salom" ("tinchlik") deb o'zgartirilgani[27] islomda tinchlik va inoqlikka chaqiruvchi axloqiy me'yorlarning ustuvorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan ba'zi ismlar diniy-madaniy muvofiqlikka asosan o'zgartirilgan. Masalan, "Osiyya" ("bo'ysunmas") deb nomlangan bir ayolning ismi "Jamila" ("go'zal") deb o'zgartirilgan bo'lsa,

[27] Ibn Ḥajar al-ʿAsqalānī. al-Iṣābah fī Tamyīz al-Ṣaḥābah. Edited by ʿĀdil Aḥmad ʿAbd al-Mawjūd et al., ʿĀlam al-Kutub, 1995. Vol. I. – P. 211.

shuningdek, erkak sahobalardan “Qolil” (“kam, oz”) ismli kishi “Kasir” (“ko‘p”) deb nomlangan[28].

Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan ismlarda ko‘pincha quyidagi leksik-semantik xususiyatlar kuzatiladi:

Tavhidiy mazmun: Allohga nisbat berilgan ismlar (Abdulloh, Abdurrahmon).

Axloqiy fazilatlar: Siddiq, Amin, Salom, Jamil, Halim kabi sifatlar: *Yahudlar birinchi navbatda bergan javoblarini yana takror qildilar. So‘ngra Rasulullo alarga qarab: – **Abdulloh ibn Salom** sizlarning ichinglarda qandoq odamdur? – deb so‘radilar. Anda barchalari bir og‘izdan javob berishib: Ul odam bizning sayyidimiz, olimimiz bo‘lur, deyishdi. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 81-bet).*

*Navbatdagi misol: Anda **Jamil ibn Muammar** degan kishini ko‘rsatdilar. Hazrati Umar aning bilan ertalab ko‘rishib: “**Ey Jamil**, xabaring bormi, men Islom diniga kirib, Muhammadga iymon keltirdim”, dedi. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 37-bet).*

Kufr va shirkdan tozalash: johiliyat davridan qolgan ilohiy bo‘lmagan ma’nolardan voz kechish.

Payg‘ambarimiz tomonidan bunday o‘zgarishlar nafaqat leksik o‘zgartirish sifatida, balki shaxsiyatni islomiy qadriyatlar asosida qayta ifodalash vositasi sifatida amalga oshirilgan.

Bobning ikkinchi fasli “*Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan sahoba xonimlarga qo‘yilgan hamda o‘zgartirilgan ismlarning leksik-semantik va etimologik xususiyatlari”* deb nomlanib, unda ayol sahobalarning ismlarini o‘zgartirish uni faqat islomiy qonun-qoidalarga moslashtirish emas, balki nom orqali ijtimoiy-axloqiy tarbiyaning amaliy ifodasini ko‘rsatib berish, ushbu o‘zgarishlar islom antroponimiyasida leksikologiya, axloqshunoslik va nomshunoslikning birlashuv nuqtasini tashkil etishi, nom insonning ichki olamiga, uning fe’l-atvor va ijtimoiy mavqeyiga ta’sir qiluvchi muhim lingvokulturologik vositaga aylanishi misollar yordamida ochib berilgan.

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan o‘zgartirilgan ayrim ayollar ismi salbiy ma’noga ega bo‘lgan yoki irsiy-milliy ma’naviyatga zid hisoblangan. Masalan:

1. Osiyya (عاصية – “bo‘ysunmas, osiy”) ismi Jamila (جميلة – “go‘zal, xushmuomala”) deb o‘zgartirilgan. Bu nomdagi o‘zgarish axloqiy poklik va ijtimoiy muvofiqlikni ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, yangi nom ijobiy psixolingvistik ta’sirga ega bo‘lgan[29].

Osiyya (عاصية) ismi arabcha “itoat qilmagan, itoatsiz” ma’nosini bildiradi. Bu nom Payg‘ambar tomonidan islom axloqiga mos kelmasligi sababli o‘zgartirilgan. Uning o‘rniga Toi’a (“itoat qiluvchi”) ismi ham qo‘llangan.

Johiliyat davrida insonlarga “Hazn” (g‘am), “Jamra” (otash), “Sharr” (yomonlik) kabi salbiy ma’noga ega bo‘lgan nomlar qo‘yilgan. Muhammad (s.a.v.) bunday nomlarni o‘zgartirib, ularga ijobiy baho kasb etuvchi ismlar bergan.

---

[28] al-Bukhārī, Muḥammad ibn Ismāʿīl. al-Jāmiʿ al-Ṣaḥīḥ. Edited by Muḥammad Zuhayr ibn Nāṣir al-Nāṣir. – Beirut: Dār Ṭawq al-Najāḥ, 2001, Vol. I. – S. 212.

[29] Ibn Hajar al-‘Asqalani. Al-Isabah fi Tamyiz al-Sahabah. II jild. – Bayrut: Dār al-Fikr, 1984. – S. 472.

Masalan, Hazn (“g‘am”) ismi Sahl (“osonlik”) deb o‘zgartirilgan, Jamra (“otashcha”) ismi Salima (“sog‘-salomat”) deb almashtirilgan[30]. Masalan: *Ular ichida **Sahl ibn Hanif**, bu kishi ersa, Madina xalqidan chiqqan atoqlik merganlardin edi, to‘rt tomondin Rasulullohga qasd qilib kelgan dushmanlarni o‘q bilan urib, hech birini yaqin keltirmay turibdi. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 118-bet). Shuningdek, Badr jangi g‘oziylari orasida ham Sa’d ibn Sahl, Sahl ibn Hanif, Sahl ibn Rofe’, Sahl ibn Atik, Sahl ibn Qays, Sahl ibn Vahb, Abdulloh ibn Sahl ismli sahobalar bo‘lganligi qayd etilgan. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 153–154-betlar).*

Demak, ism almashtirish orqali Rasulullоh insonlarning ijtimoiy maqomini axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirishni, ma’no sofligini saqlashni maqsad qilganlar. Bunda ismning tarbiyaviy va pragmatik ta’siri ham e’tiborga olingan. Bu holat antroponimika, pragmatika hamda islomiy diskurs tahlili uchun ham muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi bob “**Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan yoki o‘zgartirilgan laqab va kunyalarning etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlari”** deb nomlangan. Uning *“Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan qo‘yilgan va o‘zgartirilgan laqablarning etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlari”* deb nomlangan birinchi fasli erkak va ayollarga qo‘yilgan laqablarning xususiyatlari, sahobalarning o‘zgartirilgan laqablarining etimologik, leksik-semantik tahliliga bag‘ishlangan.

Tadqiqot doirasida Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan qo‘yilgan va o‘zgartirilgan laqablarning etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlari quyidagi tasnif asosida tahlil qilindi:

1. Erkaklarga qo‘yilgan laqablarning etimologik va leksik-semantik xususiyatlari.
2. Ayollarga qo‘yilgan laqablarning etimologik va leksik-semantik xususiyatlari.
3. Sahobalarning o‘zgartirilgan laqablarining etimologik va leksik-semantik xususiyatlari.

Laqab [a] biror xususiyatiga ko‘ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom[31] hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida antroponimlar, xususan, laqablarning tadqiq tamoyillari, ularning lingvistik tahliliga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, rus tilshunosligida ham bu yo‘nalishda bir necha tadqiqotlar mavjud[32]. Bulardan

[30] Ibn Qayyim al-Jawziyya, Tuhfat al-Mawdūd bi Ahkām al-Mawlūd. – Bayrut: Dār al-Fikr, 1986. – S. 224.

[31] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. II жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б. 492.

[32] Балов А., Шутиков А. Прозвище крестьян деревни Хмеловской области // Живая старина. Вып. IV. 1899. С. 526–528; Ярков П. Народные слова и прозвища // Живая старина. Вып. IV. 1899. – С. 529–530;

Виноградов Н. Шишкенская волость Костромского уезда. VII. Прозвища // Живая старина. Вып. III-IV. 1901. – 130 с.

A.M.Selichev[33], V.K.Chichagov[34], G.V.Tropin[35], V.A.Gordlevskiy[36], N.A.Rodina[37]larning tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir. Laqablar alohida antroponimik tadqiqot obyekti bo‘lgan ishlar ham mavjud.

Qayd qilinganlardan tashqari, turli xalqlar tilidagi laqablar haqida bir qator kitoblar, ko‘p sonli maqolalar ham mavjud. Jumladan, turkologiya doirasida ozarbayjon tilshunoslari A.Qurbonov[38], A.M.Pashayev[39] va qoraqalpoq tilshunosi Y.N.Xodjalepesovalarning kuzatishlari diqqatga molik. A.Pashayevning fikricha, laqab shaxs ismiga tirkaladigan qo‘shimcha nom sifatida kishining biror belgisi yoki kasb-koriga ishora qiladi[40].

O‘zbek tilshunosligida A.Ishayevning Mang‘it shevasidagi laqablar to‘g‘risidagi maqolasi[41] tilimizdagi laqablar tahlilini boshlab bergan bo‘lsa, laqablarning lingvistik xususiyatlari va ularning izchil ilmiy o‘rganilishi E.Begmatov tomonidan atroflicha yoritib berilgan[42]. E.Begmatov ismni antroponimlarning asosiy kategoriyasi, laqab, taxallus va familiyalarni esa “qo‘shimcha nominativ kategoriyasi”[43] deb nomlagan.

Islomiy an’analarda laqab (arabcha: لقب – “laqab, unvon”) shaxsga nisbatan u yoki bu fazilatni, tana sifati yoki ijtimoiy maqomni ifoda etish uchun berilgan nom hisoblanadi. Bu nomlar aksar holda jamoa yoki yetakchi shaxs tomonidan shaxsiy sifatlarga ko‘ra qo‘yilgan bo‘lib, arab antroponimiyasida muhim rol o‘ynagan.

Islomning ilk asrlarida Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan sahobalarga bir necha laqablar berilgan. Bu laqablar ijobiy ma’nolarni anglatib, shaxsning islomiy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqatini, jasoratini, ilm-fazilatini yoki xalq orasida tutgan nufuzini ifodalagan. Masalan:

Abu Bakr as-Siddiq – “siddiq” so‘zi arabcha “rostgo‘y, sodiq” ma’nosini beradi. Bu laqab Hazrat Abu Bakrga Payg‘ambar (s.a.v.)ning Me’roj voqeasini tasdiqlagani uchun berilgan[44].

Umar al-Faruq – “faruq” so‘zi “haq bilan botilni farqlovchi” ma’nosini beradi. Umar ibn Xattob islomda adolat va qat’iyat ila tanilgani bois ushbu laqab berilgan[45].

---

[33] Селичев А. М. Происхождение русских фамилий, личных имен и прозвищ // Ученые записки. МГУ. Вып.128. Кн.первая. 1948. – С. 136–141.

[34] Чичагов В.К. Из истории русских личных имен и фамилий. – М.: Учпедгиз, 1959.

[35] Тропин Г.В. Русские имена, отчество и фамилии. – Иркутск, 1961.

[36] Гордлевский В.А. Избранные сочинения. Том IV. Этнография, история востоковедения, рецензии. – М.: Наука, 1968. – С. 131–137.

[37] Родина Н.А. Современные детские и молодежные прозвища: структурно-семантический и функционально-динамический аспекты: Дисс. канд. …филол. наук. – Смоленск, 2014.

[38] Qurbanov A. Azərbaycan onomalogiyasının əsasları. II cild. – Bakı: Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası, 2019. – 432 s.

[39] Пашаев А. Прозвища в азербайджанском языке: Автореф. дисс. канд. … филол. наук. – Баку, 1987. – 10 с.

[40] Ходжалепесова Ю.Н. Прозвище в системе каракалпакской антропонимии. Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Нукус, 1995.

[41] Ишаев А. Манғит шевасига оид кузатишлар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – № 2. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 229–234.

[42] Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 49–70.

[43] Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дисс. канд. …филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965.

[44] Ibn Hajar al-‘Asqalānī. al-Isābah fī Tamyīz al-Ṣaḥābah, I jild. – Bayrut: Dār al-Fikr, 1986. – S. 152.

[45] an-Navavī, Yaḥyā ibn Sharaf. Tahzīb al-Asmā’ wa-l-Lughāt, II jild. – Bayrut: Dār al-Fikr, 2002. – S. 377.

Xolid ibn Valid – Sayfulloh – ya’ni “Allohning qilichi”. Bu laqab Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan uning harbiy mahoratlari va islom yo‘lidagi jasorati uchun berilgan*: Endi tug‘ni Xolid ibn Valid oldi. Ey bor Xudoyo, bu quling ersa sening qilichlaringdan bir keskin qilichdur, unga yordam bergaysan, – deb duo qildilar. Shu kundan boshlab bu bahodir yigitga “Sayfulloh”, ya’ni “Allohning qilichi” deb laqab qo‘yildi. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 222-bet).*

Islom tarixida, xususan, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) davrida ayollarga beriladigan laqablar ko‘pincha ularning jamiyatdagi ulug‘ maqomi (masalan, payg‘ambar ahli), alohida fazilatlari (shijoat, sabr, vafo, bilim), onalik maqomi yoki payg‘ambarga yaqinligi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Masalan: Xadicha al-Kubro – “Katta Xadicha” degan ma’noda, islomni birinchi qabul qilgan ayol, Payg‘ambarning sevimli zavjasi sifatida ushbu laqab bilan tarixda qolgan.

Fotima az-Zahro – “Pok va nurli” ma’nosini anglatuvchi ushbu laqab Payg‘ambarning qiziga nisbatan ishlatilgan. Uning ma’naviy pokligi, taqvodorligi va islomdagi o‘rni inobatga olingan[46].

Islom tarixida sahobalarga nisbatan berilgan yoki o‘zgartirilgan laqablar diniy, axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy mezonlarga asoslangan. Bunday laqablar sahobalarning shaxsiy fazilatlari, janglarda ko‘rsatgan jasorati, islomga qilgan xizmatlari va Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) bilan bo‘lgan aloqalariga qarab shakllangan.

Masalan, Abu Turob – Ali ibn Abu Tolibga nisbatan ishlatilgan laqab bo‘lib, “Tuproqning otasi” ma’nosini anglatadi. Payg‘ambar (s.a.v.) Alini masjidda uxlab qolganidan so‘ng tanasida tuproq ko‘rib, shunday atagan[47].

Abu Hurayra – Abdurrahmon ibn Saxr as-Sufiyga berilgan laqab bo‘lib, “mushukchalar otasi” degan ma’noni bildiradi. U mushuklarga bo‘lgan mehri va ularni doimo bag‘rida saqlashi bilan tanilgan[48].

Bobning ikkinchi fasli “*Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) tomonidan qo‘yilgan va o‘zgartirilgan kunyalarning etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlari”* deb nomlangan.

Islom an’anaviy onomastikasining muhim qismlaridan biri – kunyadir. Kunya – arabcha “كُنْيَةٌ” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’noda “kimsaning ismidan tashqari unga nisbatan qo‘llanadigan nom” degan ma’noni anglatadi[49].

Kunya insonga hurmat ifodasi sifatida qo‘yiladigan nom bo‘lib, ko‘pincha farzandining ismiga nisbatan “Abu” (otasi) yoki “Ummu” (onasi) qo‘shimchalari bilan ifoda etiladi. Kunya nafaqat ota-onalik maqomini bildiradi, balki shaxsning jamiyatdagi o‘rni, fazilati, tafakkuri va shaxsiy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Kunya – arab tilida ism va laqabdan alohida ravishda shaxsni nomlash usuli bo‘lib, abu (ota), umm (ona) kabi so‘zlar bilan tuzilgan birikmalar shaklida bo‘ladi. Masalan, Abu Abdulloh, Ummu Habiba, Ibn Abbos kabi.

---

[46] Ibn Saʿd, Muḥammad ibn Saʿd. aṭ-Ṭabaqāt al-kubrā. VIII jild. – Bayrut: Dār Ṣādir, 1990. – S. 19.

[47] ат-Табақот ал-Кубро. III жилд. Ибн Саъд. – Қоҳира: Дорул-Фикр, 1990. – Б. 123.

[48] Ибн Ҳажар. ал-Исоба фи тамйиз ас-сахоба. IV жилд. – Байрут: Дарул Маориф, 1978. – Б. 342.

[49] Ибн Манзур. Лисон ал-Араб. XV жилд. – Қоҳира: Дорул Маориф, 1993. – Б. 276.

Rasulullоh (s.a.v.) sahobalarning ismlari bilan bir qatorda, ularning kunyalarini ham o‘zgartirgan yoki yangi kunyalar bergan. Bu ko‘pincha johiliyat davridagi ma’naviy yoki axloqiy jihatdan nomaqbul mazmundagi kunyalarning islomiy axloq va ruhiyatga moslashtirilishiga xizmat qilgan.

Masalan, Abu Bakr – Abdulloh ibn Abu Quhofa al-Atiq ibn Usmonning kunyasi hisoblanib, haqiqiy ismi Abdulloh bo‘lsa-da, Payg‘ambar (s.a.v.) unga “Abu Bakr” kunyasini qo‘ygan. Bu kunyadagi “Bakr” so‘zi “erta tug‘ilgan qizning otasi” ma’nosini anglatishi mumkin. Ayrim manbalarda bu “jahlni yenggan kishi” ma’nosida ham talqin qilinadi[50]. Misol: *Abu Bakr Siddiq bilan Payg‘ambarimiz oralarida yoshliklaridin beri do‘stlik aloqasi uzilmagan edi. Boshqalardin ko‘ra, Payg‘ambarimiz qandoq oliy axloqlik, chin so‘zlik, pok dillik ekanliklari ul zot oldida ochiq ma’lum edi. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 21-bet).*

Abu Ubayda ibn Jarroh – Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan unga ushbu kunya berilgan. Bu sahobaning janglardagi jasorati va buyuk xizmatlarini anglatuvchi kunya sifatida qaror topgan[51]. *Tarixi hijratning sakkizinchi yili Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam uch yuzdan ortiqroq bir bo‘luk askarga Abu Ubayda ibn Jarrohni boshchi qilib Madinadan besh kunlik uzoqlikdagi Qizil dengiz bo‘yidagi Juhayna qabilasiga yubordilar. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 225-bet).*

Kunyalar islomiy jamiyatda hurmat va ehtirom ifodasi**,** shaxsning muqaddaslik va fazilatiga ishora, farzand orqali sha’nini belgilash va nasl-millat manbasini aniqlash kabi bir necha muhim vazifani bajargan.

Rasulullоh (s.a.v.) tomonidan sahobalarga berilgan kunyalar bir necha asosiy xususiyatlarga ega:

a) muhabbat va ehtirom ifodasi: Rasulullоh (s.a.v.) insonga izzat-ikrom ko‘rsatish, uning fazilatlarini ta’riflash maqsadida kunyalar qo‘ygan. Masalan, Abu Hurayra kunyasi – “mushukchalar otasi”, Abdurrahmon ibn Saxrga berilgan bo‘lib, uning mushuklarga mehridan dalolat beradi[52].

b) ruhiy-ma’naviy tarbiya vositasi: Payg‘ambar (s.a.v.) kunya orqali inson shaxsidagi xislatlarni rivojlantirish, yaxshilikka undash maqsadida kunyalar tanlagan. Masalan, Abu Turob (tuproq otasi) kunyasi Ali ibn Abu Tolibga berilgan bo‘lib, kamtarlikni ifoda etadi[53].

v) munosiblik va moslik mezonlari: Payg‘ambar (s.a.v.) kunyalarni shaxsning tabiati, hayoti, turmushi va fazilatiga mos holda tanlagan. Masalan, Abu Bakr, Abu Ubayda, Abu Dardo kabi kunyalar bevosita shaxsiy sifatlar, oilaviy munosabatlar yoki xislatlar asosida berilgan[54]. Misol: *Makkadan Madinaga Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam hijrat qilib kelganlaridan so‘ngra muhojir, ansor sahobalar Alloh amri bilan ikki-ikkidan do‘stlashdilar. Shunda Abu Dardo bilan Salmon Forsiy o‘rtalarida do‘stlik bog‘lanmish edi. Bir kuni ikkovlari o‘ltirib edilar, oldilariga bir tovoq osh keltirdilar. Bu taomdan yeyayotganlarida osh tovog‘i tasbeh aytgani*

---

[50] Ибн Асир. Усуд ал-ғоба фи маърифат ас-сахоба. I жилд. – Бейрут: Дорул Маориф, 1991. – Б. 101.

[51] Ибн Касир. ал-Бидоя ван-Ниҳоя. V жилд. – Димашқ: Дор Ибн Касир, 1987. – Б. 257.

[52] Ибн Ҳажар. ал-Исоба фи тамйиз ас-сахоба. IV жилд. – Бейрут: Дорул Фикр, 1987. – Б. 342.

[53] Ибн Саъд. ат-Табақот ал-Кубро. III жилд. – Қоҳира: Дорул Фикр, 1990. – Б. 123.

[54] Ибн Асир. Усуд ал-ғоба фи маърифат ас-сахоба. – Бейрут: Дорул Маориф, 1991. – Б. 101.

turdi. Buning tovushini har ikkovlari angladilar. Bu ham Rasulullohning mo‘jizalaridan edi. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 321-bet).

Payg‘ambar (s.a.v.) kunyalarni o‘zgartirishda quyidagi holatlarga e’tibor bergan:

a) nom ma’nosining salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi. Agar kunya ma’naviy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmasa yoki salbiy ma’no anglatsa, Payg‘ambar (s.a.v.) uni o‘zgartirgan. Masalan, ba’zi sahobalarning johiliyat davrida qabul qilingan kunyalarini ular musulmon bo‘lganlaridan keyin Payg‘ambar (s.a.v.) yangi, ma’noli, islomiy mazmundagi kunya bilan almashtirgan[55].

b) mazmuniy mutahammiyat (qisman shirk, mubolag‘a yoki g‘ayri shar’iy mazmun) mavjudligi. Masalan, insonni u yoki bu atribut bilan mutlaq qayd etib, uni ilohiy sifatlarga tenglashtirishdan saqlash maqsadida ba’zi kunyalar islomiy doiraga muvofiq ravishda qayta nomlangan.

v) e’tiqodiy va axloqiy tarbiya. Payg‘ambar (s.a.v.) kunya orqali shaxsdagi salbiy sifatlarni tarbiyalash yoki ijobiy xislatlarni kuchaytirishga intilgan. Shu bilan birga, kunya shaxsning jamiyatdagi maqomi, qadriyatlarga munosabatini ifodalagan.

Kunyalarning o‘zgartirilishida Payg‘ambar (s.a.v.)ning yondashuvi islomiy ma’naviy ideallarga moslashtirishga yo‘naltirilgan. Bu jarayonda:

munosib almashtirish asosiy metod bo‘lgan;

kunyaning fonetik va semantik yangilanishi ta’minlangan;

yangilangan kunya ishonch, hurmat va fazilat mazmunini ifodalagan.

Masalan, Abul Hakam → Abu Jahl. Islomga qarshi kurashgan, mushriklar yetakchisi bo‘lgan Amr ibn Hishom “Abul Hakam” – “hikmat otasi” kunyasiga ega edi. Payg‘ambar (s.a.v.) uning kufrda mutaassibligi, hikmatdan yiroqligi sababli unga “Abu Jahl” – “jaholat otasi” kunyasini berdi[56]. Bu nom tarixda uning ma’naviy portreti sifatida saqlanib qoldi: *Yana, Rasulullohga eng qattiq dushman bo‘lib, ozor bergan kishi Makkada Abu Jahl edi. (Sog‘uniy A. “Tarixi Muhammadiy”, 283-bet).*

Demak, kunyalar diniy-axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi semantik vazifaga ega bo‘lib, Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan berilgan yoki o‘zgartirilgan kunyalar semantik jihatdan ehtirom, sadoqat, taqvo, shukr kabi tushunchalarni ifoda etgan, kishini yaxshilikka chorlash, jamiyatda ezgu xulq-atvorni mustahkamlashga xizmat qilgan.

XULOSA

1. Diniy antroponimlar mustaqil onomastik qatlam sifatida nominativ, identifikatsion, aksiologik, pragmatik va lingvokulturologik vazifalarni bajarishi hamda ularning semantik tizimi diniy e’tiqod, tarixiy an’ana va milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

2. Sahobalarga berilgan ism, laqab va kunyalar leksik-semantik jihatdan axloqiy fazilat, ijtimoiy maqom, kasbiy faoliyat, jismoniy va ruhiy belgi hamda

---

[55] Ибн Ҳажар ал-Асқалоний. ал-Исоба фи тамйиз ас-сахоба. II жилд. – Бейрут: Дорул Фикр, 1986. – Б. 147.

[56] Ибн Касир. Ал-Бидоя ван-ниҳоя. III жилд. – Қоҳира: Мадина, 2000. – Б. 122.

oilaviy munosabatlarni ifodalovchi ma’no maydonlari asosida tizimlashishi aniqlandi. Ushbu tasnif diniy antroponimlarning semantik modellarini belgilash imkonini berdi.

3. Rasulullоh (s.a.v.) tomonidan ism qo‘yish va ismlarni o‘zgartirish amaliyoti tasodifiy nominatsiya emas, balki antroponimning semantik mazmuni, aqidaviy mosligi, tarbiyaviy ahamiyati va ijtimoiy ta’sirini hisobga oluvchi izchil lingvistik tamoyillarga asoslangani ilmiy jihatdan dalillandi.

4. Rasulullоh (s.a.v.) tomonidan qo‘llangan laqab va kunyalar metaforik hamda metonimik nomlash usullari asosida shakllangan ikkilamchi nominativ birliklar bo‘lib, ular shaxsning ijtimoiy maqomi, axloqiy fazilatlari, kasbi va oilaviy munosabatlarini ifodalovchi lingvokulturologik vosita sifatida faol qo‘llangani aniqlandi.

5. Diniy antroponimlarning etimologik tahlili ularning asosiy qismi arab tili leksikasi negizida shakllanganini, ayrim antroponimlar esa qadimgi somiy tillardan o‘zlashgan holda Qur’on va hadislar hamda islomiy ma’naviy qadriyatlar ta’sirida yangi diniy-semantik mazmun kasb etganini, natijada ularning dastlabki etimologik ma’nosi bilan diniy-konnotativ ma’nosi o‘rtasida uzviy semantik bog‘liqlik yuzaga kelganini ko‘rsatdi.

6. Rasulullоh (s.a.v.) tomonidan berilgan va o‘zgartirilgan ism, laqab hamda kunyalar shaxsni axloqiy jihatdan rag‘batlantirish, ijobiy fazilatlarni targ‘ib qilish, diniy identitetni shakllantirish va jamiyatdagi ijtimoiy nufuzni belgilashga xizmat qiluvchi samarali nominativ mexanizm ekanligi dalillandi.

7. Ism, laqab, kunya va taxalluslar arab antroponimik tizimining o‘zaro funksional bog‘liq tarkibiy qismlari ekani, ularning har biri shaxsni identifikatsiya qilish, kommunikativ ehtiyojni ta’minlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, shaxsning ijtimoiy maqomi, axloqiy fazilatlari va oilaviy mansubligini ifodalash orqali antroponimik tizimning pragmatik hamda lingvomadaniy vazifalarini amalga oshirishi asoslandi.

8. Qur’oni karim, hadislar, siyrat va tarixiy manbalarda uchraydigan diniy antroponimlarning lingvokulturologik tahlili ular musulmon xalqlarning ma’naviy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va madaniy tafakkurini ifodalovchi muhim til birliklari ekanligini ko‘rsatdi.

9. Diniy antroponimlarni leksik-semantik, etimologik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik yondashuvlar uyg‘unligida tadqiq etish ularning strukturaviy hamda funksional xususiyatlarini kompleks yoritish imkonini beruvchi metodologik model sifatida asoslandi.

10. Tadqiqot natijalari o‘zbek onomastikasi va antroponimiyasi nazariyasini diniy antroponimlarning tizimli tavsifi, semantik tasnifi, etimologik talqini hamda funksional tavsifi bilan boyitadi va islom onomastikasiga oid keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 AT FERGANA STATE UNIVERSITY

FERGANA STATE UNIVERSITY

FATTOXOV XOLMUXAMMAD XAYRULLOYEVICH

AN ETYMOLOGICAL AND LEXICAL-SEMANTIC STUDY OF RELIGIOUS ANTHROPONYMS
(Based on the Works “Tarikhi Muhammadiy” and “Qissasi Rabghuzi”)

10.00.01 – Uzbek language

ABSTRACT
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in PHILOLOGY

Fergana – 2026

The topic of the doctoral (PhD) dissertation is registered by the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under No. B2025.3.PhD/Fil6685.

The dissertation was completed at Fergana State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) is posted on the Fergana State University website (www.fdu.uz) and the "Ziyonet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Dusmatov Xikmatullo Haytboyevich** Doctor of Philology, Professor
Official opponents:	**Nurmonova Dilfuza Abdulhamidovna** Doctor of Philology, Professor
	Yusupova Shahzoda Tokhirjon qizi Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor.
Leading organization:	**Termez State University**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 at Fergana State University on "_____" _____ 2026 at _____ (Address: 100151, Fergana city, B. Marginoniy street, 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: fardu_info@umail.uz).

The dissertation is available for review at the Information Resource Center of Fergana State University (registered under No. _____). Address: 150100, Fergana city, Murabbiylar street, 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

The dissertation abstract was distributed on "___ ___ ___" _____, 2026.

(Register record number _____ dated "___ _____ _" _____, 2026).

M.Y.Mamajonov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor.

A.I.Saminov
Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor.

M.T.Abdupattoyev
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor.

INTRODUCTION (annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

The relevance and necessity of the research topic. In world linguistics, personal names and their spiritual, cultural, and historical dimensions have long been recognized as one of the principal areas of onomastics and anthroponymy. In particular, the study of the origin, historical development, and semantic implications of religious anthroponyms has become a complex linguocultural issue in contemporary linguistics, investigated not only from grammatical and semantic perspectives but also through philosophical, cognitive, and civilizational approaches. Within this context, the influence of theophoric and religiously associated names on personal identity, as well as their intrinsic relationship with sacred texts, has attracted sustained attention from linguists, philosophers, and cultural anthropologists. Research in this field contributes to the systematic investigation of the lexical-semantic and etymological characteristics of religious anthroponyms, the comparative analysis of historical and contemporary naming traditions, the improvement of anthroponymic dictionaries and databases, and the enrichment of scholarly research in onomastics, lexicology, etymology, linguocultural studies, and religious studies with reliable scientific evidence. The findings of the present research also have practical significance for the development of specialized university courses and teaching materials, the scientific organization of religious and educational outreach activities, and the promotion of an informed culture of personal naming.

Within global linguistic scholarship, anthroponyms associated with Islamic culture constitute a distinct system of personal names characterized by unique semiotic, social, and spiritual significance. The personal names bestowed or modified by the Prophet Muhammad (peace be upon him) possess not only religious significance but also a lexical-etymological structure closely connected with moral education and the system of social values. The scholarly investigation of this phenomenon, the elucidation of the influence of Islamic naming traditions on the Uzbek language and national consciousness, and the exploration of the semantic layers of universal and sacred names represent one of the important theoretical issues in contemporary anthroponymic studies. The present research provides a comprehensive analysis of the lexical-semantic and etymological nature of religious anthroponyms, systematically classifies their naming principles, semantic patterns, and linguocultural characteristics, refines the theoretical and methodological foundations for the study of religious anthroponyms, and contributes new scholarly findings to the theoretical framework of Uzbek onomastics, anthroponymy, lexicology, and etymology.

During the years of independence, the reassessment of the Uzbek language and national heritage, as well as the restoration of spiritual values embedded in language, has gained even greater significance. Systematic measures are currently being implemented in accordance with the “Concept for the Development of the Uzbek

Language and the Improvement of Language Policy for 2020–2030," which sets out these goals and objectives. In this process, the renewed popularity of religious names and the stronger rooting of names associated with sacred figures in popular consciousness are observed. Therefore, the scientific, lexical-semantic, and etymological analysis of these names, as well as their study on linguocultural and sociolinguistic bases, fully meets the demands of the time.

The ideas and conclusions expressed in this dissertation serve as a source for implementing the tasks defined in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5419 dated April 16, 2018 "On measures to radically improve the activities of the religious and educational sphere," No. PF-5847 dated October 8, 2019 "On approval of the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030," No. PF-5850 dated October 21, 2019 "On measures to drastically enhance the prestige and status of the Uzbek language as the state language," No. PF-6084 dated October 20, 2020 "On measures for the further development of the Uzbek language and improvement of language policy in our country," and Resolution No. PQ-308 dated October 21, 2025 "On additional measures for the further development of the state language," as well as in other relevant normative legal documents.

Compliance of the research with the priority areas of development of science and technology in the Republic. This study was carried out in accordance with Priority Area I of the development of science and technology in the republic: "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and democratic state."

The degree of study of the problem. Names, including religious anthroponyms, occupy an important place in a person's personal and social life. They are significant not only as a means of nomination, but also as a linguocultural phenomenon incorporating certain social, religious, cultural, and national values. Research within folk onomastics, including anthroponymy, has received special attention both in world linguistics and in Uzbek linguistics.

In world linguistics, a number of studies have been conducted in the field of anthroponymy, particularly concerning religious names. Among them, J.Greenberg studied the general structure of religious anthroponyms[1]; E.Sapir illuminated the functions of names in culture and social environment[2]; A.V.Superanskaya analyzed the types, features, and functions of names from the onomastic perspective[3]; V.A.Nikonov researched the role of religious and historical names in society within Russian onomastics[4]; Yu.A.Karpenko described the linguistic functions and cultural markers of names[5]; Annemarie Schimmel investigated naming traditions in Islam

[1] Гринберг Ж. Структурная лингвистика / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1970. – 432 с.
[2] Сапир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – 656 с.
[3] Суперанская А.В. Общее имя и имя собственное. – М.: Наука, 1986. – 204 с.
[4] Никонов В.А. Имена и общества: История, функции, типология. – М.: Наука, 1974. – 200 с.
[5] Карпенко Ю.А. Ономастика и её значение в языкознании. – Одесса: Астропринт, 2001. – 148 с.

and the interpretation of names based on the Qur'an and hadith[6]; Ahmed Salahuddin identified the lexical, etymological, and cultural aspects of Muslim names[7]; Fatima Mernissi conducted research on women's religious names and their social role[8]; Gerhard Böwering elucidated the names of Allah mentioned in the Qur'an and their linguistic interpretations[9]; and Seyyed Hossein Nasr carried out special studies on Islamic traditions and the spiritual essence of names[10].

A number of studies have also been conducted within Turkology on this issue. Among them, the monographic works of T.Jonuzoqov, T.Kusimova, A.Shaykhulov, Z.Sadixov, A.Pashayev, and M.Chobanov[11], as well as A.Minnegaliyeva's *The Language of Tatar Religious-Didactic Literature: Based on the Material of the Islamic Jurisprudence Treatise "Mukhtasar al-Quduri"*[12], Z.Yakhyayeva's *Religious Lexicon and Phraseology of the Kumyk Language*[13], X.Kurbanov's *Religious Lexicon of the Chechen Language*[14], T.Iskovich's *Genre Systematization of Religious Style on Communicative-Pragmatic and Categorial Textual Bases*[15], Z.Xafizova's *Semantic Classification of Religious Lexicon of the Bashkir Language*[16], and Y.Xodjalepesova's *Nickname in the System of Karakalpak Anthroponymy*[17] deserve mention.

In Uzbek linguistics, extensive scientific research has been conducted on anthroponyms and their classification, lexical and historical features, as well as issues of religion and linguistics. These studies were carried out by such linguists as E.Begmatov, N.Uluqov[18], M.Galiyeva, M.Mamajonov, Sh.Yusupova, X.Qodirova,

---

[6] Schimmel A. Islamic Names. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1990. – 166 p.

[7] Ahmed S**.** A Dictionary of Muslim Names. – London: Hurst & Company, 1999. – 215 p.

[8] Mernissi F. The Veil and the Male Elite: A Feminist Interpretation of Women's Rights in Islam. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1991. – 222 p.

[9] Böwering G**.** God and His Attributes in the Qur'an. – *In:* Encyclopaedia of the Qur'an, Vol. II, ed. by Jane Dammen McAuliffe. – Leiden: Brill, 2002. – P. 317–331.

[10] Nasr Seyyed H. Ideals and Realities of Islam. – London: Unwin Paperbacks, 1988. – 220 p.

[11] Жанузаков Т. Лично-собственные имена в казахском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1960. – 19 с.; Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Уфа, 1975. – С. 17–25; Шайхулов А.Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения. Уфа, 1983.; Садыхов З. Личные имена в азербайджанском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1975; Пашаев А. М. Прозвища в азербайджанском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Баку, 1987. – 18 с.; Чобанов М.Н. Азербайчан антропонимикасынин эсэслари. – Тбилиси: Генарлеба, 1983.

[12] Миннегалиева А.М. Язык татарской религиозно-дидактической литературы: на материале трактата по исламской юриспруденции "Мухтасар ал-Кудури": Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Казань, 2007. – С. 31.

[13]URL:http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9r (Murojaat sanasi: 11.02.2024)

